MAHMUD ZAMAXSHARIY VA U YASHAGAN DAVRDAGI ILMIY-MADANIY HAYOT

Banaayev Abdulbori Majidxon o‘g‘li

E-mail: bannayevabdulbori@gmail.com

Abstract: This article explores the socio-political, philosophical, and religious foundations of the intellectual and cultural boom known as the Eastern Renaissance, which took place in Central Asia and the Islamic East during the 9th–12th centuries. Using the Samanid state and the Karakhanid Khanate as case studies, the paper provides a comprehensive analysis of how centralized administration, the ilekhan system, and state-sponsored patronage of scholars stimulated the growth of major scientific hubs. The historical significance of institutions such as Baghdad’s "Bayt al-Hikma" and the Khwarazm Mamun Academy in fostering rationalist traditions is highlighted. Furthermore, the study offers a comparative review of one of the era’s core intellectual debates: the relationship between reason and revelation (rational cognition vs. scripture) across the Mu’tazilite, Ash’arite, and Maturidite schools of thought. The paper scientifically substantiates how this intricate philosophical, religious, and academic environment shaped the worldview of the great scholar Mahmud al-Zamakhshari, serving as the foundational catalyst for his unique philosophical and ethical insights presented in his renowned work "Atwaq uz-Zahab" (The Necklaces of Gold).

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию социально-политических и философско-религиозных основ интеллектуального и культурного подъема — Восточного Ренессанса, происходившего в Центральной Азии и на мусульманском Востоке в IX–XII веках. В работе на примере государства Саманидов и Караханидского каганата подробно анализируется роль централизованной системы управления, института илекханов, а также государственной материальной и духовной поддержки ученых в развитии научных центров. Продемонстрировано значение таких учреждений, как «Байт аль-хикма» в Багдаде и Академия Мамуна в Хорезме, в утверждении рационалистических традиций. В сравнительном аспекте изучена одна из ключевых интеллектуальных проблем эпохи — соотношение разума и откровения

(рационального познания и божественного послания) в рамках школ мутазилизма, ашаризма и матуридизма. В статье научно обосновано, как эта сложная философско-религиозная и научная среда повлияла на мировоззрение великого ученого Махмуда Замахшари и послужила главным фактором формирования его оригинальных философско-этических идей в произведении «Атвак уз-захаб» («Золотые ожерелья»).

Annotatsiya: Mazkur maqola IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va musulmon Sharqida yuz bergan intellektual va madaniy yuksalish — Sharq Renessansining ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy-diniy asoslarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Somoniylar davlati va Qoraxoniylar xonligi misolida markazlashgan boshqaruv tizimi, eloqxonlik instituti hamda davlat tomonidan ilm ahliga ko‘rsatilgan moddiy va ma’naviy homiylikning ilmiy markazlar rivojidagi o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” hamda Xorazmdagi Ma’mun akademiyasi kabi muassasalarning ratsionalistik an’analarni qaror toptirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Davrning eng yetakchi intellektual muammolaridan biri bo‘lgan aql va naql (ratsional bilish va vahiy) nisbati masalasi mu’taziliylik, ash’ariylik hamda moturidiylik maktablari doirasida qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada ushbu murakkab falsafiy-diniy va ilmiy muhit buyuk alloma Mahmud Zamaxshariy dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatgani va uning “Atvoq uz-zahab” asaridagi o‘ziga xos axloqiy-falsafiy g‘oyalarning shakllanishida bosh omil bo‘lib xizmat qilgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq Renessansi, Somoniylar, Qoraxoniylar davlati, eloqxonlik tizimi, Ma’mun akademiyasi, mu’taziliy ratsionalizmi, aql va naql bahsi, moturidiylik, Mahmud Zamaxshariy, “Atvoq uz-zahab”, falsafiy-axloqiy tafakkur, musulmon Sharqi.

Asosiy qism. IX–XII asrlar Markaziy Osiyo va musulmon Sharqi tarixida siyosiy barqarorlik, ilmiy-madaniy yuksalish hamda falsafiy-diniy tafakkurning faol shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu davrda markazlashgan davlatlar vujudga kelib, jamiyatda ilm ahlining ijtimoiy mavqei mustahkamlandi, ilm-fan va madaniyat davlat homiyligi ostida rivoj topdi. Natijada falsafiy tafakkur, diniy-ilmiy qarashlar va axloqiy g‘oyalar o‘zaro murakkab, ammo sermahsul muloqot maydoniga kirdi. Ayniqsa, IX–X asrlarda Somoniylar davlati hukmronligi davrida markazlashgan siyosiy boshqaruv va nisbatan barqaror ijtimoiy muhit ilm-fan rivoji uchun qulay sharoit yaratdi. Davlat boshqaruvida vazirlar va yuqori

mansabdor shaxslarning ilm ahliga homiylik qilishi natijasida Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda ilmiy muhit mustahkamlandi, ulamo va fuzalolarning jamiyatdagi mavqei yuksaldi. Bu holat ilm-fanning faqat diniy emas, balki mantiqiy va falsafiy yo‘nalishlarda ham rivojlanishiga imkon berdi.

IX–X asrlarda Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlikning nisbatan mustahkam bo‘lgan bosqichi Somoniylar davlati hukmronligi bilan bog‘liqdir. Biroq X asr oxirlariga kelib Somoniylar davlati ichki ijtimoiy ziddiyatlar, sulolaviy nizolar va sinfiy qarama-qarshiliklar ta’sirida chuqur tanazzul holatiga tushib qoladi. Ushbu siyosiy zaiflashuv mintaqada yangi kuchlarning paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Ana shunday vaziyatda Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida IX asrning ikkinchi yarmida turli turkiy qavmlar ittifoqi asosida Qoraxoniylar davlati shakllanadi. Mazkur davlatga Abdulkarim Satuq Bug‘roxon (859–955) asos solgani, hukmdorlar “arslonxon” yoki “qoraxon” unvonlari bilan yuritilgani manbalarda qayd etiladi. Qoraxoniylar so‘zining o‘zi turkiy qabilalar orasida “ulug‘”, “buyuk” ma’nosini anglatgani siyosiy hokimiyatning ideologik asoslanganidan dalolat beradi. Davlatning dastlabki poytaxti Sharqiy Turkistondagi Bolasog‘un shahri bo‘lganligi ko‘rsatiladi.

Somoniylar davlati ichki tanglik holatiga tushib qolgan bir paytda Qoraxoniylar hukmdorlari Hasan va Nasr Bug‘roxonlar boshchiligidagi qo‘shinlar Somoniylarga qarshi harbiy yurishlarni kuchaytiradi. Natijada 992–996-yillarda hamda 999-yilda Buxoro egallanib, Somoniylar sulolasining so‘nggi vakili Ismoil al-Muntasir (1000–1005) hukmronligi barham topadi. Shu tariqa Movarounnahr hududlari Qoraxoniylar tasarrufiga o‘tadi.

XI asr o‘rtalariga kelib Qoraxoniylar davlatining hududi nihoyatda kengayib, boshqaruv tizimi murakkablashgani sababli davlat ikki qismga bo‘linadi. Markazi Samarqand bo‘lgan G‘arbiy xonlik Movarounnahrning katta qismini qamrab olgan bo‘lsa, markazi Bolasog‘un bo‘lgan Sharqiy xonlik tarkibiga Talas, Isfijob, Shosh (Toshkent), Sharqiy Farg‘ona, Yettisuv va Qo‘shg‘ar hududlari kirganligi ko‘rsatiladi. Bu holat markazlashgan, biroq hududiy boshqaruvga tayangan siyosiy tizim shakllanganidan dalolat beradi.

Qoraxoniylar davlati boshqaruvi mahalliy-hududiy tartibga asoslangan bo‘lib, yirik viloyatlar eloqxonlar-mahalliy hukmdorlar tomonidan idora qilingan. Eloqxonlar markaziy hokimiyatga belgilangan miqdorda xiroj va to‘lovlarni yuborib turgan holda, amalda o‘z hududlarini mustaqil boshqarganlar.

XI–XII asrlarda Qoraxoniylar hukmronligi nisbatan beqaror siyosiy muhitda kechadi. Manbalarda Movarounnahr hududlari uchun saljuqiylar va qoraxitoylar bilan olib borilgan kurashlar alohida ta’kidlanadi. Xususan, saljuqiylarning so‘nggi podshohi Sulton Sanjar (1118–1157) Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmdori Arslonxon (1102–1130) zaiflashganidan foydalanib Samarqand va uning atroflarini egallagani qayd etiladi. Natijada Qoraxoniylar xonlari bir muddat saljuqiylarga tobe bo‘lib qoladi.

Nihoyat, 1211-yilga kelib Xorazmshoh Alouddin Muhammad (1200–1220) davrida Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi rasmiy boshqaruviga butunlay barham beriladi. Shu bilan XI–XII asrlarda siyosiy barqarorlik doimiy emas, balki davriy ravishda kuchayib va zaiflashib borgan murakkab tarixiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq aynan shu siyosiy tuzilmalar va boshqaruv institutlari jamiyatda ulamo va fuzalo qatlamining shakllanishi hamda ilmiy-intellektual muhitning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur sharoit yaratgan.

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va musulmon Sharqida shakllangan markazlashgan davlatlar siyosiy barqarorlikni ta’minlash bilan birga, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun mustahkam institutsional asos yaratdi. Bu davrda siyosiy boshqaruvning markazlashuvi, davlat aparatining takomillashuvi hamda iqtisodiy resurslarning markaziy idoralar orqali taqsimlanishi ilmiy-ma’rifiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash imkonini berdi. Xususan, Somoniylar va keyinchalik Qoraxoniylar davrida davlat boshqaruvi devonlar tizimiga asoslangan bo‘lib, unda bosh vazir devoni, moliya va nazorat idoralari faoliyat yuritgan. Mazkur tizim davlat daromadlarining markazlashgan holda boshqarilishini ta’minlab, ilmiy va diniy muassasalar faoliyatiga moddiy zamin yaratgan.

Qoraxoniylar davrida viloyatlarning eloqxonlar tomonidan boshqarilishi mahalliy mustaqillik unsurlarini saqlab qolgan bo‘lsa-da, markaziy hokimiyatga xiroj va soliq to‘lovlarining muntazam yuborilishi umumdavlat iqtisodiy barqarorligini ta’minlab turgan.

Aynan ushbu iqtisodiy barqarorlik sharoitida Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa yirik shaharlarda masjidlar, madrasalar hamda ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Bu muassasalar nafaqat diniy bilimlar, balki tilshunoslik, mantiq, fiqh va falsafiy tafakkur rivojiga xizmat qilgan. Natijada ilm ahlining jamiyatdagi mavqei mustahkamlanib, ulamo va fuzalo qatlamining ijtimoiy nufuzi shakllangan.

Manbalarda qayd etilishicha, davlat boshqaruvida faoliyat yuritgan amaldorlar va vazirlar ilm ahliga homiylik qilishni siyosiy legitimlikning muhim omili sifatida ko‘rganlar. Chunki ilmiy-elita vakillarining qo‘llab-quvvatlashi hukmdor hokimiyatining ijtimoiy tayanchini mustahkamlab, davlat boshqaruvining ma’naviy asoslarini kuchaytirgan. Shu sababli ilmiy faoliyat faqat diniy soha bilan cheklanib qolmagan, balki tilshunoslik, mantiq, axloqiy-falsafiy tafakkur va tarixiy tafsir yo‘nalishlarida ham jadal rivojlangan. Bu holat ilmiy tafakkurning jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayon Markaziy Osiyo bilan cheklanib qolmay, kengroq musulmon Sharqi miqyosida ham kuzatilgan. IX–XII asrlarda Yaqin Sharqda, xususan Abbosiylar davrida, markazlashgan siyosiy tuzum ilm-fan taraqqiyotining muhim tashqi sharti sifatida namoyon bo‘ldi. Bag‘dod shahrida tashkil etilgan “Bayt ul-hikma” (Ma’mun akademiyasi) ilmiy faoliyatning yirik markaziga aylangan bo‘lib, bu maskan tabiiy fanlar bilan bir qatorda falsafiy va mantiqiy tafakkur rivojida ham muhim rol o‘ynadi. Bu yerda yunon falsafasi, matematika, astronomiya va tabobatga oid asarlar arab tiliga tarjima qilinib, ilmiy sharhlar bilan boyitilgan.

Davlat hokimiyatining ilm ahliga bo‘lgan homiyligi tarjima harakatining keng miqyosda amalga oshirilishiga imkon yaratdi. Manbada ta’kidlanishicha, yunon falsafasining arab tiliga o‘girilishi va uni tizimli tarzda sharhlash jarayonlari bevosita davlat himoyasi va moddiy ta’minoti ostida olib borilgan. Bu hol ilmiy faoliyatning tasodifiy yoki individual tashabbus mahsuli emas, balki davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, markazlashgan siyosiy tuzum savdo-sotiq va shahar madaniyatining rivojiga turtki bergan. Iqtisodiy faollikning ortishi matematika, astronomiya, tabobat va falsafaga bo‘lgan amaliy ehtiyojni kuchaytirgan. Qodirov ta’kidlaganidek, aynan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik sharoitida ilmiy tafakkur amaliy hayot bilan uzviy bog‘lanib, falsafa

mavhum nazariya darajasidan chiqib, jamiyat muammolarini anglash va hal etish vositasiga aylangan. Bu jarayon falsafiy tafakkurning ontologik, gnoseologik va axloqiy yo‘nalishlarda rivojlanishiga olib kelgan.

Davlat va ilm o‘rtasidagi bunday o‘zaro aloqadorlik natijasida mutafakkirlar jamiyatda alohida mavqega ega bo‘lib, ilmiy faoliyat ijtimoiy jihatdan e’tirof etilgan. Ilm ahlining qo‘llab-quvvatlanishi natijasida mustaqil ijodiy muhit vujudga kelib, falsafiy maktablar va ratsionalistik yo‘nalishlar shakllangan. Aynan mana shu tarixiy-intellektual muhitda mu’taziliy ratsionalistik tafakkur rivoj topib, aql va mantiqni bilishning asosiy mezoni sifatida talqin etuvchi qarashlar mustahkamlandi.

Mazkur muhit Mahmud Zamaxshariy kabi allomalarning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Siyosiy barqarorlik, davlat homiyligi va ilm ahlining yuqori ijtimoiy mavqei Zamaxshariyning tilshunoslik, tafsir va axloqiy-falsafiy qarashlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Uning axloqiy-falsafiy mulohazalari jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, keyinchalik “Atvoq uz-zahab” kabi asarlarda nazariy jihatdan mujassamlashgan.

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan ilmiy-madaniy yuksalish markazlashgan davlatlar tomonidan yaratilgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Mazkur davrda shaharlar nafaqat ma’muriy markaz, balki ilm-fan jamlangan intellektual makon sifatida shakllandi.

Somoniylar davrida Buxoro “islom olamining ilmiy poytaxti” sifatida tanilgan bo‘lib, bu yerda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy majlislar faoliyat yuritgan. Davlat tomonidan ilm ahliga ko‘rsatilgan homiylik natijasida ulamo va fuzalolar jamiyatning nufuzli ijtimoiy qatlamiga aylangan. Samarqand esa, Qoraxoniylar hukmronligi davrida yirik ilmiy markaz sifatida rivoj topib, bu yerda diniy-ilmiy ta’lim bilan bir qatorda mantiq va falsafiy mushohada ham rivojlangan.

Xorazm hududidagi Urganch shahri IX–XI asrlarda Sharq ilm-fanining muhim markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda shakllangan ilmiy muhit butun musulmon Sharqiga ta’sir ko‘rsatgan. Usmonovlar qayd etishicha, Marv shahri ham o‘z davrida yirik ilmiy va madaniy markaz bo‘lib, ko‘plab olimlar faoliyat olib borgan hududlardan biri hisoblangan. Bu

shaharlarning “ilm gumbazi”ga aylanishi ilmiy tafakkurning shahar madaniyati bilan uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi. Sharq Renessansi jarayonida Xorazmda shakllangan ilmiy muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazmshoh Ma’mun davrida tashkil etilgan Ma’mun akademiyasi ilmiy faoliyatning institutsional shaklini yuzaga keltirdi.

Ma’mun akademiyasi faoliyati natijasida ilmiy izlanishlar individual emas, balki jamoaviy va tizimli tus oldi. Bu muhitda shakllangan ratsionalistik tafakkur keyinchalik Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan mutafakkirlarning dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Sharq Renessansining muhim xususiyatlaridan biri antik (yunon) falsafaning islomiy dunyoqarash bilan ijodiy uyg‘unlashuvidir. M. Sharipov qayd etishicha, bu davrda Aristotel va Platon falsafasi Sharq mutafakkirlari tomonidan chuqur o‘rganilib, yangi falsafiy tizimlar yaratishda asos bo‘lib xizmat qilgan. Antik meros ko‘r-ko‘rona qabul qilinmay, islomiy aqida va axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qayta talqin etilgan. Mazkur sintez natijasida Sharq falsafasida aql va tafakkur bilishning muhim vositasi sifatida e’tirof etildi. Ratsional mushohada va mantiqiy tahlil ilmiy faoliyatning asosiy usullariga aylandi. Bu jarayon mu’taziliy ratsionalizmining shakllanishiga zamin yaratib, Zamaxshariy mansub bo‘lgan intellektual an’anani vujudga keltirdi. Uning “Atvoq uz-zahab” asaridagi axloqiy-falsafiy mulohazalar ana shu tarixiy-falsafiy sintez mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va musulmon Sharqida ilmiy-madaniy yuksalish bilan bir qatorda, diniy-falsafiy tafakkur doirasida keskin nazariy bahslar ham shakllandi. Ushbu davr intellektual hayotining muhim xususiyati turli aqidaviy maktablar o‘rtasidagi muloqot va qarama-qarshilik bo‘lib, ularning markazida aql (aql – ratsional bilish) va naql (vahiy va rivoyatga tayanish) o‘rtasidagi nisbat masalasi turardi. Bu bahslar falsafa va kalomning chegaralarini aniqlash, ilmiy bilishning uslubiy asoslarini belgilash jarayonida muhim rol o‘ynadi.

Ilk islom davrida shakllangan mu’taziliylar oqimi ratsionalistik yondashuvi bilan ajralib turdi. Mu’taziliy mutakallimlar ilohiy haqiqatni tushunishda aqlni yetakchi mezon sifatida ilgari surib, inson irodasi erkinligini, adolat va javobgarlik tamoyillarini asoslashga intildilar. Ushbu oqim vakillari uchun e’tiqod masalalari mantiqiy isbot va bahs orqali

tushuntirilishi zarur bo‘lgan. Markaziy Osiyoda mu’taziliy g‘oyalarning tarqalishi ilmiy muhitda ratsional tafakkurning kuchayishiga xizmat qildi va diniy bilimning falsafiy talqiniga yo‘l ochdi.

Mu’taziliy ratsionalizmiga qarshi ravishda shakllangan ash’ariylik ta’limoti esa, vahiy va an’anaga tayanishni ustuvor, deb bilgan. Ash’ariy mutakallimlar aqlning imkoniyatlarini inkor etmagan holda, uni vahiy bilan chegaralash zarurligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, ilohiy haqiqat aql orqali emas, balki Allohning kalomi va payg‘ambarlik an’analari orqali anglanadi. Bu yondashuv falsafa bilan kalom o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan bo‘lib, diniy tafakkurning mutlaq ratsionalizatsiyasiga ehtiyotkor munosabatni aks ettiradi. Markaziy Osiyoda keng yoyilgan moturidiylik ta’limoti esa, mu’taziliy va ash’ariy qarashlar o‘rtasida muvozanatli pozitsiyani egalladi. Moturidiylikda aql va naql bir-birini inkor etmaydigan, balki to‘ldiruvchi manbalar sifatida talqin qilindi. Ushbu maktab vakillari e’tiqod masalalarida aqlning rolini tan olgan holda, uni vahiy bilan uyg‘un holda qo‘llash zarurligini asosladilar. Aynan shu yondashuv Markaziy Osiyo diniy-falsafiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyatini belgilab berdi.

Mazkur aqidaviy bahslar faqat diniy soha bilan cheklanib qolmadi, balki falsafiy tafakkur rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Mu’taziliylar tomonidan ilgari surilgan ratsional metodlar antik yunon falsafasining mantiqiy usullari bilan uyg‘unlashib, islom falsafasining shakllanishiga xizmat qildi. Natijada falsafa va kalom o‘rtasida murakkab, ammo samarali aloqadorlik vujudga keldi: kalom Arastu dialektikasidan foydalanar ekan, falsafa esa, ilohiyot bilan muloqotda o‘z metodologiyasini boyitdi.

Aynan shunday intellektual muhitda Mahmud Zamaxshariy mansub bo‘lgan mu’taziliy tafakkuri shakllandi. Zamaxshariyning ratsional yondashuvi uning tilshunoslik va tafsir asarlarida bo‘lgani kabi, axloqiy-falsafiy qarashlarida ham namoyon bo‘ladi. “Atvoq uz-zahab” asarida inson, adolat, ilm va mas’uliyat kabi tushunchalarning mantiqiy va axloqiy asosda talqin qilinishi ushbu mu’taziliy ratsionalizmning bevosita mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan siyosiy barqarorlik, yirik shaharlarning ilm-fan markazlariga aylanishi, Xorazm ilmiy muhitida institutsional bilim

ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi hamda mu’taziliy, ash’ariy va moturidiy oqimlar o‘rtasidagi nazariy bahslar Sharq falsafiy tafakkurining serqirra va dinamik manzarasini yuzaga keltirdi. Antik falsafa merosining islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi natijasida aql, mantiq va axloq masalalari ilmiy mushohada darajasiga ko‘tarilib, diniy-falsafiy tafakkur yangi bosqichga chiqdi. Aynan mana shunday boy ilmiy-falsafiy muhit, g‘oyalar to‘qnashuvi va ratsional mushohadaga asoslangan intellektual an’ana Mahmud Zamaxshariy kabi qomusiy olim shaxsining shakllanishi uchun mustahkam tarixiy va ma’naviy zamin yaratdi.